


O'QUVCHILARDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA HIKOYA METODINING AHAMIYATI

*Toshpo'latova Ozoda,
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti
3-kurs 309-guruhan talabasi:*

Anotatsiya. Maqolada o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda hikoya metodining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Yosh avlodga bilim berish bilan birga, ularni e'tiqod va qadryatlar ruhida ham tarbiyalashda badiiy adabiyorning ta'siri masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kommunikatsiya, ma'naviy, axloq, kamol, metod, islom, madaniyat.



Zamon rivojlanib, ilm-fan yuksalib bormoqda, kundan-kunga barcha sohada taraqqiyot, rivojlanish kuzatilmoqda. Taraqqiyot insonga yangiliklar, turlicha qulayliklar olib kelmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasidagi rivojlanish, aloqa kommunikatsiyon texnologiyalarning taraqqiy etib borishi, o'qituvchiga ta'lim berishni osonlashtirmoqda. O'quvchi o'zi qiziqqan ma'lumotlarini dunyo aloqa tarmog'idan osongina qidirib topib, ma'lumotga ega bo'lmoqda. Biroq taraqqiyot – aloqa ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi bir tomondan qulayliklar olib kelsa, bir jihat yoshlarda ijtimoiy aloqa vositalariga tobek, bog'lanib qolish holatlari kuzatilmoqda. Eng ayanchlisi: bog'cha yoshidagi, mакtab yoshidagi bolalarning kompyuter o'yinlariga va ijtimoiy tarmoq vositalariga bog'lanib qolishi, shu yoshdagi bolalarning mafkurasiga salbiy ta'sir etib, bolalar onggida buzg'unchi g'oyalarning shakllanishiga hamda tajovuzkorlik kabi salbiy illatlar ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlardan bizning madaniyatimizga zid bo'lgan yot g'oyalar, axloqsizliklarning kirib kelishi, bir so'z bilan aytganda, g'arb mag'zavasining ta'siri o'spirin-yoshlar orasida ko'p kuzatilmoqda. Bu holat esa axloqiy ko'rsatmalarning buzilishiga va yosh-avlodni ma'naviy, mafkuraviy bo'shliqga olib keladi. Demak, yosh avlodni kamol toptirish uchun ma'naviy-axloqiy tarbiya barcha davrlarda dolzarb bo'lib qolaveradi. Jamiyatimiz yuksalishi uchun, yoshlar onggida ma'naviy bo'shliq yuzaga kelmasligi uchun yoshlar mafkurasida quyidagi tushunchalarni singdirishimiz va shu ruhda tarbiyalashimiz lozimdir:

-Milliy qadriyatlarni shakllantirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

-o'zligikni anglatish.

Yoshlarda e'tiqod, qadriyatlarni o'zligimizni anglatishimiz uchun ularni ayni maktabga qadam qo'ymasidanoq tarbiyalanishlari lozim. Bu ishda ayni damda ota-onas, bog'cha tarbiyachisi va mahalla ham mas'uldir. Yoshlarimizni ijtimoiy tarmoqlardan kirib kelayotgan buzg'unchi g'oyalarga, axloqsizliklarga qarshi immunitet hosil qilishi uchun, xalq pedagogikasidagi: namuna, dakki, rag'bat metodlari samara beradi. Hikoya metodi, inson tarbiyasiga ta'sir etuvchi qisqa muddatli video filmlar, sahna ko'rinishlar shular jumlasidandir. Bunday metodlar bolaning onggiga ijobiy ta'sir qilib, yetarlicha samara beradi. O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda sahna ko'rinishlari, video filmlar, hikoyalar uning tarbiyasiga amalda berilgan rag'bat yoki dakki, unga axloqning dastlabki tushunchalarini yetkaza oladi. Video filmlar sahna ko'rinishlarning ta'siri yanada samara beradi. Chunki o'quvchi o'qib, qulqoq bilan eshitib yodda saqlab qolishdan ko'ra, video filmlar sahna

ko‘rinishlarning ta’siri, 5 barabar kuchli hisoblanadi. Bog‘chadagi tarbiyachim meni o‘zimda, hikoya metodi orqali, onamga bo‘lgan muhabbatni yanada rivojlantirgan. Hikoya nomi: “ONA”.

Bir ona o‘z bolasini yolg‘iz katta qilar. Bu ayolning turmush o‘rtog‘i bola dunyoga kelmasdan oldin vafot etgan edi. Bolasi hech kimdan kam bo‘lmasligi, qo‘lidan kelgan hamma ishni bajarar, maktabda farroshlik qilar edi. Qolgan vaqtłari qo‘snilalarining to‘y va ma’rakalarida xizmat qilar, oqshomlari shu to‘ylar uchun ko‘rpacha tikib berar edi. Bolasi bir, kun ona men sinfdoshlarimdan uyalyapman farroshni bolasi deb mazax qilishyabdi. Men bugun maktabga bormayman deb janjal qilib qoldi. Ona sho‘rlik bolam o‘rtoqlari oldida uyalmasin deb, tong qorong‘usida chiqib ketar, sovuq ayoz bo‘lishiga qaramay maktabni supurib sidirib kelar edi. Ona o‘zi qiynalsa ham bolasini hech kimdan kam qilmadi. Ona bolasi biror narsaga zor bo‘lmasligi uchun vaqtini ishlashga sarflar, bolasi tarbiyasiga vaqt topa olmaganligi tufayli yoki to‘qlikka sho‘xlikmi? Bola ko‘cha bolalariga qo‘shilib ishyoqmas, axloqsiz bo‘lib voyaga yetdi. Yillar o‘tib onasining bilagidan kuch ketgach, tong saharlari sovuqda pol yuvganlari ta’siri endi bilinar, og‘riqdan qaddini rostlay olmas darajada bukulib qolgan edi. Onasining yoshi keksayib ishga yaroqsiz bo‘lib qolgan edi. Onaizor ne orzu umidda o‘g‘li tanlagan qizga uylantirdi. Aksiga olib, kelini bolasini kabi, mehrsiz bo‘lib chiqdi. O‘g‘il va kelini onasini mensimas yumushlariga yordam qilmas edi. O‘g‘ilning tarbiyasizligi yoki ko‘cha bezorilariga qo‘shilganligi tufaylimi, bir jinoyatda aybdor deb topilib qamalib ketdi. Hech qancha vaqt o‘tmasdan, kelini uydan ketib qoldi. Onaizor qarib, qaddi bukulib qolishiga qaramasdan, yana zo‘r berib ishlar, sababi qamoqxonaga bolasiga jo‘natma yuborish kerak edi. O‘g‘il onasidan yana jo‘natma yuborishini so‘rab xat yozdi. Umrida birinchi marotaba onaizor xatga javob yozmadni, o‘g‘lining istagini bajarmadi. Onasidan jo‘natma kelmaganidan so‘ng, u buni tushunib yetdi, endi u butunlay yolg‘iz qolganini, onasidan boshqa hechkimga kerakmasligini anglatdi. Qilgan qilmishlarini tushunib yetdi, ammo kech bo‘lgandi. Sababi, onasi bu yorug‘ olamni tark etgan edi.

Xulosa sifatida birgina hikoya metodi orqali o‘quvchilar qalbiga kuchli ta’sir etib, ularda insonparvarlik va axloqiy qadriyatlarni rivojlantiradi. Tasavvur qiling, hikoyani sahna ko‘rinishi yoki video film orqali o‘quvchilarga havola qilsak, ta’sir doirasi yanada ortadi. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda, hikoya metodi, qisqa muddatli video filmlar, sahna ko‘rinishini tashkil etish samarali usullardan biri hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyatlar

1. Abu Nasr Farobiy va Abu Rayhon Beruniylarning ta’limiy axloqiy qarashlari(20.09.2019).
2. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009.
3. Qurbonov S. Didaktik o‘yinlar. – Urganch, 2011.
4. Raximova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU, 2022. – 308-b.
5. Raximovaa G. Alisher Navoiy ijodida ta’lim va tarbiya// INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. 2023.
6. Qarshiyevna, R. G. (2023). BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. " ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION, 10(1).
7. Gulbahor, R. (2023, April). O’QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MATN VA RASMLARNING O’RNI. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 4, pp. 33-36).

- Actual problems in higher education in the era of globalization
8. Rahimova, G., & Akramova, S. (2023). Legendary Heroine Women of History" Tamaris" and "Queen Sondok". World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(2), 99-101.
 9. Rahimova, G., & Sh, F. (2023). ALISHER NAVOIY IJODIDA TA'LIM VA TARBIYA. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 4(1), 60-63.
 10. Rahimova, G., & Norbekova, S. (2022). ANVAR OBIDJON SHE'RIYATIDAGI YUMORISTIK MOTIVLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(10), 110-113.

